

LANDSHAFTLARDAN FOYDALANISHDA TURLI YONDASHUVLARNING QO‘LLANILISHI

P.A.Xasanov – *tayanch doktorant*

Samarqand davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: landshaftlar, yondashuv, foydalanish, antropogen, nazariy, atrof-muhit, ekologik, metodlar.

Ключевые слова: ландшафты, подход, использование, антропогенные, теоретические, экологические, экологические, методы.

Key words: landscapes, approach, use, anthropogenic, theoretical, environmental, ecological, methods.

Kirish. Bugungi kunda landshaftlarga bo‘lgan yondashuvlar har qanday xo‘jalik tarmoqlarida, xususan qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaliklari, o‘rmon xo‘jaligi, dehqon xo‘jaliklari va boshqa xo‘jalik tarmoqlarini atrof muhit muhofazasini hisobga olgan holda ekologik jamiyat qurish, loyihalashtirish inobatga olinadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining UNEP atrof-muhit bo‘yicha yetakchi global organ bo‘lib, ushbu tashkilot iqlim o‘zgarishi, tabiat va biologik xilma-xillikning yo‘qolishi va ifloslanishi kabi sayyoraviy inqirozning asosiy sabablarini o‘rganish orqali keng jabhada transformatsion o‘zgarishlarni amalga oshirmoqda [15]. Jumladan, O‘zbekiston ham UNEP va IUCN xalqaro tashkilotlariga a‘zo davlatlardan biridir. Landshaft komplekslarini o‘rganish va oqilona foydalanishda bu tashkilotlarning dunyo miqyosida o‘rni katta hisoblanadi.

Tabiiy geografik muhit va undagi tarkibiy qismlarini o‘rganish asnosida 20-asrning boshlariga kelib, fanning tadqiqot obyektini tizimlashtirishda fanlararo modifikatsion shaklda, bir butun bog‘langan komponentlar to‘plami sifatida ko‘rib chiqish zarurati tug‘ildi. Albatta fanning shakllanishida V.V.Dokuchayev va A.Gumbold kabi olimlarning qarashlari asos bo‘lgan edi.

Asosiy qism. Geografiya fanlari tizimida - tabiiy-hududiy komplekslar - landshaftlarni, ularning morfologik birliklarini, xususiyatlarini o‘rganadigan landshaftshunoslik fani paydo bo‘ldi. Karl Troll tomonidan “landshaft ekologiyasi” (gorizontal va vertikal) qarashlari 1930-yillarning oxirida taklif etildi. Landshaftlarni idrok etishda ikkita talqin vujudga keldi. N.L.Beruchashvili landshaftni landshaft-tasviriy tuzilmani tashkil etuvchi va hududning o‘ziga xosligini belgilovchi tabiiy, tarixiy, ma‘daniy, an‘anaviy ekologik boshqaruv va boshqa komplekslarning o‘zgaruvchan birikmasi sifatida tushunadi [1,11].

Tizimli yoki raqamlashtirilgan - landshaft yondashuvi asosida katta maydonga ega obyektlarni xarita yordamida o‘rganish, loyihalash hamda ulardan foydalanishda eng maqbul yechimdir. Qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, tog‘-kon sanoati yerlari kabi hududlardan unumli foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash, inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ta‘minlaydi (1-rasm).



1-rasm. Landshaftlardan foydalanishda turli yondashuvlar.

Landshaftlardan foydalanishda yondashuvlarning mazmun mohiyati hududni tabiiy-hududiy komplekslar majmui sifatida o‘rganish bo‘libgina qolmay balki hududning landshaft strukturasi, uning dinamik tahlilini, barqaror rivojlanishdan tashqari ta‘sirga bo‘lgan qarshilik kuchini baholashni, va eng ustuvor jihatlarni hisobga olinishni taqazo etadi. Metodologik yondashuvni amalga oshirishda landshaft xaritasini tuzish hamda landshaftni aniqlash asosida ma‘lum bir hududning keyingi tahlili ishlab chiqiladi. Landshaft xaritalari asosida o‘rganilayotgan hududdagi tabiiy geografik jarayonlar, hodisalar va boshqa vaziyatlarning, “o‘tmish-hozir-kelajak” rejalashtirilgan umumiy xulosasi olinadi. Yondashuv orqali hududdagi tabiiy komplekslarning o‘ziga xosligi aniqlanib, tabiiy sharoitlarini hisobga olib, tabiiy resurslarni baholash mumkin.

Landshaftlardan to‘g‘ri va oqilona foydalanish masalasi hozirgi kundagi kun tartibidagi masala bo‘lib turibdi. Masalan, agar arid iqlim mintaqalarida tuproq va o‘simlik qoplami harakteriga qarab baholansa, cho‘l va chalacho‘llar maydoni quruqlikning 43% ini ishg‘ol etadi. Arid iqlim mintaqasida sug‘oriladigan yerlar maydoni 260 mln ga, qolganlari lalmi yerlar va yaylovlardan iborat [3]. Landshaft boshqaruvi kontseptsiyasi so‘nggi yillarda global ravishda ommalashayotgan muhim amaliyot hisoblanadi. Yondashuvlarning har hil variantda namoyon bo‘lishi, juda ko‘plab talqinlar asosida kechayotgan bo‘lsada, keng qamrovlarning barchasi inson va uning keyingi istiqbollari haqidadir. Misol qilib biologik xilma-xillikni saqlashning ustuvor yo‘nalishlari, iqlim o‘zgarishiga doir chora va tadbirlar, atmosfera havosini ifloslanishini oldini olish, tuproqlarning xossa va xususiyatlarini saqlash, tog‘-kon sanoati hududlarining tabiatga bezararligini oshirish, suv xo‘jaligi kabi masalalarda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kundagi ekologik muammolarni oldini olishda insoniyatning boshqa bir sivilizatsion ko‘rinishga o‘tishini talab qiladi. Bunga esa jamiyatning barcha qatlami bir xil javob qaytarmaydi. Masalan ba‘zi davlatlar xalqaro kelishuvga ko‘ra ishlab chiqilgan konsepsiyalarga amal qilmaydi, yoki to‘liq emas. Bunda jamiyatning tayyorligi emas balki iqtisodiy-ijtimoiy muhit sababchi bo‘ladi. Landshaftlardan foydalanishdagi yondashuvlar tabiiy muhit va iqtisodiy sektor(korxona, tashkilot, muassasalar)lar, davlat, mintaq va dunyo miqyosidagi umumiy hamfikrlilikni, shartlarni bajarishni anglatadi. Har bir hududning landshaftlarida ekologik muvozanat buzilishi mavjud bo‘lib, yondashuv va yechimlar orqali tizimlashtirilsagina natija beradi.

Landshaft yondashuvlarining har turlichaligiga qaramay Jeffri Sayer va hamkasblari (2013) ishlab chiqqan 10 ta tamoillar asosida yahlit bo‘lgan tizim ko‘zga tashlanadi, biroq insoniyatga to‘laqonli yet-

kazish oson ish emas. Tajribalarga tayanilsa, adaptiv va integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini joriy etilishi orqali landshaftlarning har bir komponentlari hamda ulardagi tabiiy jarayonlar bilan birga barqarorlikka erishiladi [4,6,7].

Shuni e'tiborga olish kerakki, foydalanilayotgan landshaft hududi inson tomonidan sezilarli darajada o'zgartirilgan bo'lib, hozirgi qiyofasi, tabiiy hamda antropogen omillarning o'zaro uyg'unlashuvidan hosil bo'ladi. Albatta, fazoviy texnologiyalar (GAT) asosida juda ko'plab yondashuv va loyihalarning tezkorligi oshishi, aniq ma'lumotlarning yig'ilishi osonlashuvi kuzatiladi. Faqat hududning tahliliy yondashuvi har bir komponentlarning alohida xulosasiga tayanadi, chunki bitta komponentga tegishli jarayon boshqa komponentga sezilishi kam yoki sekin bo'lishi mumkin. Landshaftlarning har bir tarkibiy qismidagi xususiyatlarni hisobga olib, antropogen ta'sir ko'lamini aniqlash bilan yondashuv shakllantiriladi [9,10,12].

Landshaftlarning eng barqaror qismlari: relyef, tuproq, iqlim elementlari, kabi asosiy qismlar bilan tavsiflanadi. Landshaftlardan foydalanishda landshaft xaritasidan tashqari har bir tarkibiy qismning alohida xaritasi va ma'lumotlari to'planib qayta tahlil qilinadi. Masalan: har bir hududning muhandislik-qurilish sharoitlarini baholashda tabiiy sharoitlarning xususiyatlari, geologik, geomorfologik strukturasi, yer osti va yer usti suvlari kabi jarayon, hodisalar, shuningdek inson-ta'sirida tabiiy muhitda qanchalik o'zgarishlar sodir bo'lganligi bilan belgilanadi. Qazib oluvchi tog'-kon sanoatida ishlab chiqarishni rivojlantirish, asosiy resurslarni saqlash zarurati tog'-kon hududlari aholisining hayot faoliyatida, shuningdek, o'simliklar va hayvonot, tuproq, suv, kabi komponentlarda yuqori sifatda ishlab chiqilgan "yashil koridor" shakliga o'tilishi bilan belgilanadi. Atrof muhit muhofazasida, turli xil o'rganishlar ta'sirlarining aniq tashxisi muhim sanaladi. Aholi va tabiiy-muhitni bir butunlikka bog'laydigan landshaftlardagi o'zgarishlar ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yechimlarini xolisona bartaraf etishga qaratiladi.

Antropogen ta'sirlarga chidamlilik landshaft shakllarida ko'zga tashlanadi. Landshaft hududining ekologik tabiiy asosini tuzish uchun landshaft xaritasi asosida muhofaza etiladigan tabiiy hududning ba'zi landshaft xillari bilan aloqadorligini solishtirish orqali tipik va noyob bo'lgan tabiiy komplekslarning vakilini aniqlash kerak bo'lib, ekologik "nochor" hududlarni aniqlash imkonini oshiradi. Bu esa "yangi" qo'riqlanishi lozim bo'lgan hududlarni belgilashda asos bo'ladi [5,13,14].

Turizm sohasi va rekreatsiyani rivojlantirishda landshaftlarning paydo bo'luvchi yuklarga chidamliligini hisobga olib, ma'daniy-tarixiy va landshaft-rekreatsion salohiyati tahlil qilinadi. Landshaftlarni turizm va rekreatsion ko'rsatkichlari, hududdagi geotizimlarni GAT asosida rejalashtirish hamda juda ko'plab tabiiy geografik

xususiyatlarni qamrab oladi. Bularga: relyef, mikroiklim xususiyatlari, gidrologik tarmoqlari va b. kiradi. Ushbu elementlar asosida turizm va rekreatsiyaning rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Misol qilib olganda, o'rmon, cho'l, tog', adir, buloq, bahavo yerlar va hokazo. Mazkur yondashuvda landshaftlarning barqarorligini saqlash va har hil tahdidlarni oldini olish uchun konsepsiyalar ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etilishi lozim. Antropogen ta'sir ko'lamini qanchalik ortgani sari landshaftlardagi o'zgarishlar shunchalik ortadi. Shu bois ushbu yondashuvda "hudud sig'imi", zichlik koeffisienti inobatga olinishi va yashil zonalar tashkil qilinishi bilangina muammoni yechish mumkin. Yashil yo'llar landshaft strukturasi chiziqli komponentlari sifatida, shuningdek, yashil infratuzilmaning muhim elementlari bo'lib, ko'p funktsiyali maqsadlarda rejalashtirilishi, loyihalashtirilishi va boshqarilishi mumkin bo'lgan bio-koridorlarni ifodalaydi [8,10]. Ular ekotizimning chidamliligini oshirishi, aholi jamoatlarida barqarorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash hamda iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatishni qo'llab-quvvatlashi mumkin. Atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish shartlariga to'liq rioya etilgan holda mavzuga oid hududga mos masshtabdagi xaritalar, sxemalar ishlab chiqiladi. Hudud bo'yicha qilingan tahlilga taalluqli iqtisodiy va ijtimoiy tomonlarni hamda ko'lamini baholash ishlari aniqlanishi lozim.

Xulosa. Ta'kidlash kerak, landshaftlardan foydalanishda, landshaft-ekologik yondashuvidan foydalanish uning rivojlanish istiqbollarini hisobga olgan holda hududni funktsional rayonlashtirishni amalga oshirish va shunga mos ravishda oqilona ekologik modelni yaratish imkonini beradi. Rejalashtirish obyekti boshqaruv va barqaror rivojlanish xususiyatlari qamrab olinadi. Landshaftlardan foydalanishda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, qurilish-muhandislik obyektlari, tog'-kon sanoati hududlari, turizm-rekreasiya maskanlari, qo'riqxona, milliy bog' va o'rmon xo'jaliklarining raqamlashtirilgan xaritaga ega bo'lishi hamda atrof muhit muhofazasiga doir baholash ishlari yuqori aniqlikda qilingan bo'lishi shart. Chunki ba'zida vaqt omili sababli o'z davrining yirik, mukammal loyihalari eskirib, talab darajasida bo'lmay qoladi.

Mazkur holatlarda landshaftlardan foydalanishda barqarorlik, iqtisodiy-ijtimoiy foydalanish xususiyatlari, biologik xilma-xillik, landshaft-ekologik va boshqa bir qator prinsip, metodlar bilan bog'liq tarzda olib borilishi maqsadga muvofiq. Bunda ahamiyatli shuki, landshaftlarni, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatining asosiy obyekti sifatida, landshaftlarning turfa xilligi kontsepsiyasini esa geoekologik tadqiqotlar amalga oshirish uchun yo'naltiriladi. Xususan, birgina qo'riqxonalardan yoki milliy bog'lar, landshaft-ekologik tamoyilni tashkil etish va faoliyatini optimallashtirish sohasida yetarlicha samarali nazariy va uslubiy asos sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi.

Adabiyotlar

1. Беручашвили Н.Л. Методы комплексных физико-географических исследований. / Н.Л.Беручашвили, В.К.Жучкова. – М.: Изд-во МГУ, 1997. – С.320.
2. Abdulqosimov A., Yarashev K., Meliyev B. Landshaft komplekslarini kartalashtirishning dolzarb muammolari // Samarqand davlat universiteti ilmiy tadqiqotlar axborotnomasi. 1-son (95). – Samarqand: 2016. 100-104-b.
3. Xodjimatov A.N., Yarashev Q.S., Boymurotov S.M. Arid hududlar geografiyasi. Darslik -T.: "SARVAR PRINT", 172-b. 2024.6-b.

4. Jeffrey Sayera,1, Terry Sunderlandb, Jaboury Ghazoulc, Jean-Laurent Pfundd, Douglas Sheilb,e,f, Erik Meijaardb,g,h, Michelle Ventera, Agni Klintoni Boedhihartonoa, Michael Dayb, Claude Garciab,i, Cora van Oostenj, and Louise E. Buckk. "Ten principles for a landscape approach to reconciling agriculture, conservation, and other competing land uses" SPECIAL FEATURE: PERSPECTIVE. Proceedings of the National Academy of Sciences May 2013.

5. Konvey, GR (1985). Agroekotizim tahlili. *Qishloq xo'jaligi boshqarmasi*, 20(1), 31–55. [https://doi.org/10.1016/0309-586X\(85\)90064-0](https://doi.org/10.1016/0309-586X(85)90064-0)

6. Hilborn.R., Walters.CJ va Ludwig.D. (1995). Qayta tiklanadigan resurslardan barqaror foydalanish. *Ekologiya va sistematikaning yillik sharhi*, 26 (1),45-67. <https://doi.org/10.1146/annurev.es.26.110195.000401>

7. [Mark](#) Antrop Geografiya bo'limi, Gent universiteti, 281 Krijgslaan, S8, B-9000 Gent, Belgiya, marc.antrop@rug.ac.be

8. Родоман Б.Б. «Поляризованный ландшафт»: полвека спустя. // Известия Российской академии наук. Серия географическая. 2002. № 3. -С. 467–480.

9. Abdug'aniev O.I. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimini takomillashtirish va ulardan foydalanishning geoeologik asoslari (Farg'ona vodiysi misolida) // G.f.d. (DSc) ilm. dar. olish uchun taqdim. et. diss. –T., 2023. –291 b.

10. Баранов В.А. «Теоретические основы экологической оптимизации ландшафта» Электронный научно-практический журнал // Сельское, лесное и водное хозяйство. 2012. № 9 [Электронный ресурс]. URL: <https://agro.snauka.ru/2012/09/520>

11. Соколов А.С. "Ландшафтное разнообразие: теоретические основы, подходы и методы изучения". <https://cyberleninka.ru/article/n/landshaftnoe-raznoobrazie-teoreticheskie-osnovy-podhody-i-metody-izucheniya>

12. Jakub Melicher, Jana Špulerová. "Application of Landscape-Ecological Approach for Greenways Planning in Rural Agricultural Landscape" *Environments* 2022,9,30. <https://doi.org/10.3390/environments9020030>

13. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. –М.: «Высшая школа», 1979. –С. 91-109, 222.

14. Хасанов Р.А. "Tabiiy landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va agrolandshtlar o'rganilish tarixi"//Экономика и социум, г.Саратов, ул.Волжская, 28. №12 (115), 2023 www.iupr.ru

15. www.eco.gov.uz

REZYUME. Maqolada landshaftlar va uning xilma-xilligi hamda undan foydalanish istiqbollari haqida so'z boradi. Shuningdek, landshaftning geografik bilimlar tizimidagi o'rni, fundamental va amaliy ahamiyati tahlil qilinib, landshaftlardan foydalanishda yondashuvlarning o'ziga xos tomonlarini aniqlashning asosiy usullariga urg'u beriladi.

РЕЗЮМЕ. В статье говорится о ландшафтах и их разнообразии, а также перспективах их использования. Также анализируется роль, фундаментальное и практическое значение ландшафта в системе географических знаний, подчеркиваются основные методы определения конкретных аспектов подходов к использованию ландшафтов.

SUMMARY. The article talks about landscapes and its diversity, as well as prospects for its use. Also, the role, fundamental and practical importance of the landscape in the system of geographical knowledge is analyzed, and the main methods are emphasized of determining the specific aspects of the approaches to the use of landscapes.

QORAQALPOG'ISTONDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI HUDUDIIY KLASTERLARINING SHAKLLANISHI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH

K.K.Uzakbaev – katta o'qituvchi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Sh.B.Qurbonov – geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Tayanch so'zlar: ijtimoiy soha, aholiga xizmat ko'rsatish, hududiy klasterlar, Nukus klasteri, Xo'jayli klasteri, Chimboy klasteri, Qo'ng'iro't klasteri, To'rtko'l-Beruniy klasteri.

Ключевые слова: социальная сфера, обслуживание населения, территориальные кластеры, Нукусский кластер, Ходжейлийский кластер, Чимбайский кластер, Кунградский кластер, Турткуль-Берунийский кластер.

Key words: social sphere, public service, territorial clusters, Nukus cluster, Khodjeyli cluster, Chimbay cluster, Kungrad cluster, Turtkul-Beruni cluster.

Kirish. O'zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning asosiy tamoyillaridan biri kuchli ijtimoiy siyosatdir. Mamlakatimizda fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, har bir oilaning farovonligini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli choralar amalga oshirilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari – pensionerlar, nogironlar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar, ishsizlar, o'quvchi-yoshlarni ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha faol siyosat olib borilmoqda.

Ijtimoiy soha, xususan aholiga xizmat ko'rsatish sohalari, korxona va tashkilotlarining faoliyati aholining turmush sifati va tarziga, farovonligiga, iste'mol darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. aholiga xizmat ko'rsatish sohalari tarkibiga savdo, umumiy ovqatlanish, uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy xizmat

ko'rsatish va ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy sug'urta va pensiya ta'minoti, sog'liqni saqlash, rekreatsiya va turizm, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim, madaniyat va san'at, ommaviy axborot vositalari kabi tarmoqlar kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni [1], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-406-son Qarori [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son -2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi Farmonining 1-ilova -IV. Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish bo'limi 37-70 maqsadlarining barchasida respublikamiz hududlarida ijtimoiy sohalarni